

**TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLIISH KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHDA TAYM MENEJMENT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH**

**Tillabayeva Guljahon Ilhomjon qizi**

Farg'ona politexnika instituti tayanch doktoranti

[sobirjonovaguljahon1998@gmail.com](mailto:sobirjonovaguljahon1998@gmail.com), +99890161-57-73

ORCID ID 0009-0004-8411-7683

**Annotatsiya:** mamlakatimiz ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni raqobatbardosh kadr va kuchli mutaxassis qilib yetishtirish muhim masala bo'lgani uchun uzluksiz ta'lim tizimida talabalarni mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki talabalar mustaqil ta'lim olish jarayonida mustaqilligi, kreativ fikrlashi, tanqidiy fikrlashi va dunyoqarashi kengayadi. O'rgangan yangi bilimlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa hayotdagi har bir o'zgarishlarni to'g'ri baholashga va maqbul qarorlarni qabul qilishga yordam beradi. Mustaqil ta'lim olishni rivojlantiruvchi turli xil metod va texnologiyalar mavjud bo'lib ular orasida taym menejment texnologiyasi bugungi kunda eng dolzarb texnologiyalardan biridir. Chunki talabalar tizimli va tartibli harakat qilish jarayonida ularning samaradorliklari yanada yuqori bo'ladi, yangi ma'lumotlari o'zlashtirish jarayoni yengillashadi va qisqa vaqt davomida ko'proq ma'lumotlarni o'zlashtira oladi. Shu bois talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejment texnologiyasidan foydalanish talab etiladi. Ushbu maqolada mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda respondent talabalarda o'tkazilgan "Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejment texnologiyasidan foydalanish" nomli google so'rovnomaning tahlili diagramma ko'rinishiga tasvirlangan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, taym menejment, texnologiya, samaradorlik, kompetentlik, rivojlanish va taqsimlash.

**KIRISH**

Jahonning ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish va bu jarayonni tashkil etishni tizimlashtirish strategiyalarini ishlab

chiqish, ijtimoiy rivojlanishni takomillashtirish jarayonlarini loyihalashtirish, talabalarning ijodiy amaliy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish tushunchasi ostida talaba hamda o'qituvchilarning o'zaro uyg'unlashgan izchil harakatlari tushuniladi. Ushbu harakatlar natijasida pedagogik shart-sharoitlarni vujudga keltirish imkoniyati ta'minlanadi. Shunga ko'ra mazkur pedagogik shart-sharoitlar yordamida o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarish va bu jarayonda maqsadga muvofiq tarzda rahbarlik qilish imkoniyati vujudga keladi. Shu bilan birgalikda, rivojlangan barcha davlatlarning o'quv sistemasida talabalarning mustaqil ta'lim olish soatlari auditoriya soatlaridan ko'p hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida joriy etilgan ta'lim o'rta umumiy ta'limdan o'quv predmeti (talaba) va o'quv ob'ekti (o'quv jarayoni) o'rtasidagi munosabatlar uslubi bilan ajralib turadi, ya'ni u mustaqillikni talab qiladi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalar o'zlarining o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikmalarga ega emaslar, bu esa talabalarning salohiyati va maqsadlariga qaramay, past o'quv natijalariga olib keladi. Shu bilan birga, ta'lim ijtimoiy hayotning kuchli sohasi ekanligini inobatga olgan holda, talabalarning an'anaviy, masofaviy yoki gibril ta'limdan qay birida tahsil olayotganidan qat'iy nazar o'quv dasturlarida fanlar soni va mustaqil o'rganishga ajratilgan soatlarning ko'payishi munosabati bilan o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi aloqa soatlarining pasayishi kuzatilmoqda. Bularning barchasi talabalardan o'qituvchilarning nazoratisiz o'z o'quv faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etish qobiliyatini va mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishni talab qiladi.

Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejment texnologiyasidan foydalanish esa muhim ijtimoiy-pedagogik muammodir. Chunki mustaqil ta'lim orqali talabalarning intellektual salohiyati shakllanadi va rivojlanadi. Ta'lim sifatini yaxshilash va ularni kasbga to'g'ri shakllantirishda mustaqil ta'lim hamda o'z-o'zini boshqarishning o'rni katta hisoblanadi. Xalqaro ta'lim sistemasiga asoslanadigan bo'lsak ham o'quv jarayonlarining ko'p qismini mustaqil ta'lim tashkil etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim olish kompetentligi rivojlangan talabalarda ijodkorlik yuqori darajada shakllangan bo'ladi. Oliy ta'limning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsad va vazifalaridan biri buhar bir talabani biror bir sohaning yetuk mutaxassisi bo'lib shakllanishi uchun ularni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimini ko'paytirishga, innovatsion faoliyatga ega bo'lgan

ijodiy shaxsiyatni shakllantirishga yo'naltirishdan iborat.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

**N.A.Muslimovning** fikricha, "Mustaqil ta'lim-bilimlarni o'zlashtirish, tasavvurlarni rivojlantirish tushunchalari, ko'nikmalari va malakalarini hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining sub'ektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir".

**Xanderson Yuanning** fikricha, "Mustaqil ta'lim-bu ta'lim shakli bo'lib, u ko'plab o'rta maktablar, kollejlarda va boshqa ta'lim muassasalari tomonidan taklif etiladi. Ba'zan bu yo'naltirilgan o'rganish deb ataladi va bu aksariyat hollarda nazoratsiz amalga oshiriladigan ta'lim faoliyati hisoblanadi".

**Taym menejment**-bu minimal vaqt, energiya va boshqa resurs xarajatlari bilan maqsadga erishish va maksimal natijaga erishish uchun eng samarali texnika va usullardan foydalangan holda o'z faoliyatini, jamoa yoki tashkilot faoliyatini o'z vaqtida oqilona tashkil etishga imkon beradigan texnologiya. (Nizamova Chulpan) [3, 20]

**Taym menejment**-vaqtni tashkil qilish va undan samarali foydalanish texnologiyasi. Vaqtni boshqarish ma'lum ishni bajarishda uning samaradorligini oshirish uchun ketgan vaqtni ongli nazorat qilish yo'li. Taym menejmentni boshqarishga ma'lum vazifalar, loyihalar va maqsadlarni belgilangan sanaga muvofiq bajarish uchun bir qator ko'nikmalar, vositalar va texnikalar yordam berishi mumkin. (O'zbek tilining izohli lug'ati)

Ingliz olimi, siyosatchisi va faylasufi **Frensis Bekon** shunday yozgan edi: "To'g'ri vaqtni tanlash - bu hayotni o'zgartirishdir. Vaqtni kechiktirish halokatli".

Ta'lim sharoitida taym menejment texnologiyasidan foydalanish orqali talabalar o'z vaqtlaridan oqilona foydalanish, har bir rejalashtirilgan maqsad va vazifalar uchun yetarlicha vaqt ajratish, hamda belgilangan topshiriqlarni o'z vaqtida tugallash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Esda tutish kerak bo'lgan asosiy narsa shundaki, vaqtni boshqarishdagi asosiy vazifa barcha ma'lumotlarni tartibga solish va barcha mumkin bo'lgan ishlarni sanab o'tmaslik, balki

o‘z vazifalaringizni ustuvorliklarini hisobga olgan holda amalga oshirishning eng oqilona usulini topishdir.

Oliy ta‘lim muassalari talabalarining mustaqil ta‘lim olish kompetentligini rivojlantirish omillari quyidagicha: [6, 58]

1. **Ichki motivatsiya**- har qanday tashqi bosim yoki kuchlardan emas, balki shaxsning ichidan kelib chiqadigan motivatsiyani anglatadi. Bu jarayonda talabaning moyilligi, qiziqishi, dundoqarashi, uning oliy ta‘lim muassasasida o‘qish qobiliyati hisobga olinadi.

2. **Tashqi motivatsiya**-bu faoliyat bajarilgandan so‘ng, shu ishdan biror manfaat bo‘lganda yuzaga keladi. Bu bosqichda kasbiy tayyorgarlik fanlarini oliy ta‘lim muassasalarida o‘qish natijalariga bog‘liqligi bilan baholanadi.



3. **Protsessual motivatsiya**-bu talabalar bajargan ishning foydaliligini tushunishda namoyon bo‘ladi. Talabalar bajarilayotgan ishning ahamiyatiga psixologik moslashishi ham kasbiy tayyorgarlik nuqtai nazaridan ham mutaxassisning yutuqlarining oshishiga imkoniyat yaratadi. [5,86]

## NATIJARLAR

Dastlabki tajriba-sinov ishlari (2023-2024-yillar) davomida talabalarining mustaqil ta‘lim va taym menejment texnologiyasi haqida mavjud tushunchalarni aniqlashga imkon beruvchi pedagogik kuzatuvni olib borish bilan birga talabalarda mustaqil ta‘lim olish kompetentligining rivojlanish darajasini aniqlash uchun “Talabalarining mustaqil ta‘lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejmet texnologiyasidan foydalanish metodikasi” nomli so‘rovnomadan foydalanildi. Respondent-talabalar e‘tiboriga google so‘rovnoma savollari havola etildi.

**“Talabalarining mustaqil ta‘lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejmet texnologiyasidan foydalanish metodikasi” nomli so‘rovnoma tahlili**

<https://forms.gle/mxrDuEegy6cvM9wY8>



Google so'rovnoma bo'yicha respondent-talabalardan olingan javoblarni tahlil etish natijasiga ko'ra, oliy ta'limda talabalarining mustaqil ta'lim va taym menejment texnologiyasi haqidagi bilimlarini ijobiy deb baholay olmaymiz. Chunki, pedagogik kuzatish va google so'rovlarimizdan ma'lum bo'ldiki, talabalarining 70-80 % mustaqil ta'lim va taym menejment

texnologiyasi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lgani holda, atigi 30-40 % talabalargina mustaqil ta'lim olish to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishlarini namoyon eta oldilar.

### MUHOKAMA

Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda Kovi metodologiyasidan foydalanish orqali talabalar vaqtni boshqarish tizimini yaratish uchun oltita tamoyilni o'rganadilar: [5,100]

1) **izchillik** (mustahkamlik) - individual taym menejment tizimining barcha elementlarining o'zaro bog'liqligi, birligi (Kovi bo'yicha: ko'rish va missiya, rollar va maqsadlar, ustuvorliklar va rejalar, istaklar va intizom o'rtasidagi birlik);

2) **muvozanat** - bu holda "muvozanat" hayotning turli sohalarida (oila, ish, sog'liq va boshqalar) muhim maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi uchun vaqtni uyg'un taqsimlashni anglatadi;

3) **konsentratsiya** - siz doimo faoliyat turlarining hayotingiz uchun muhim ahamiyatini eslab qolishingiz va birinchi navbatda shu kabi masalalarga e'tibor qaratishingiz kerak. Buning uchun Kovi e'tiborni kunlik rejalashtirishga emas, balki haftalik rejalashtirishga qaratishni taklif qiladi. Haftalik rejalashtirish muhim, ammo shoshilinch bo'lmagan ishlar uchun juda katta vaqtni zaxiralash imkonini beradi;

4) **insoniylik**-sizga shunchaki vazifalarni bajarish jadvali emas, balki insoniy qiziqishlarni hisobga oladigan dastur kerak. Oddiy kishilar vaqtni samarali sarflash haqida o'ylaydi, hayot markaziga tamoyilni qo'ygan shaxlar esa insonlar bilan samaralli vaqt o'tkazishni ko'zlaydi.

5) **moslashuvchanlik** - sizning rejalarangiz sizning xo'jayinlaringiz emas, balki sizning xizmatkorlaringizdir! Rejalar siz uchun qulay bo'lishi, odatlaringizga, ish uslubingizga mos kelishi kerak. Agar kerak bo'lsa, rejalashtirilgan narsalarni osongina o'zgartirishingiz mumkin;

6) **ixchamlik** - rejalashtirish va vaqtni boshqarish vositalari (masalan, tashkilotchi) iloji boricha ixcham va har qanday sharoitda ishlash uchun qulay bo'lishi kerak. Bu sizga bitta

muhim g'oyani o'z vaqtida qo'lga kiritib, yo'qotmaslikka yordam beradi.

Taym menejment texnologiyasini rivojlantirishda qo'llanuvchi Pareto tamoyili shuni ko'rsatadiki, ba'zi hollarda natijalarning aksariyati ozchilikdan kelib chiqadi: ya'ni [8,10]

-Harakatning 20 foizi natijaning 80 foizini beradi;

-Ishning 20 foizi daromadning 80 foizini tashkil qiladi;

-20% xatolar 80% buzilishlarga olib keladi;

-Xususiyatlarning 20 foizi foydalanishning 80 foizini tashkil qiladi.

### XULOSA


O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda ikki xil yondashuvga tayaniladi:


1. Pedagogik yondashuv, bunday tadqiqotlarda asosiy e'tibor talabalarning mustaqil ta'lim olishini rivojlantirishda o'qituvchi faoliyati va didaktik vositalarning o'rnini ko'rsatishga qaratilgan.

2. Psixologik yondashuv, bunda talabalarning mustaqil ta'lim olishini rivojlantirishda ularning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari nuqtai-nazaridan yondashilgan.

Talabalarning mustaqil ta'lim olishini rivojlantirish jarayonida ularning ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun qulay vaziyatlar yaratish ta'lim berishning samarali usuli hisoblanadi. Shuning uchun ham, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan pedagogik jarayonlarda talabalar asosiy sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

Taym menejment texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil ishlarini tashkillash sxemasi







Tajriba sinov guruhlarini kuzatish jarayonida quyidagilar ma'lum bo'ldi: talabalarda mustaqil ta'lim va uni tashkil etish, taym menejment texnologiyasi, mustaqil ta'lim olish jarayonida ushbu texnologiyadan foydalanish haqida yetarlicha bilimlar mavjud emas. Shuning uchun talabalarga mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejment texnologiyasidan foydalanish haqida to'liq ma'lumot beruvchi hamda kundalik faoliyatda qiyinchiliklarsiz ishlatiladigan dasturiy vosita yaratildi va bu dasturni qanday ishlatish haqida nazariy ma'lumotlar berildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brain Tracy. Time management (The Brian Tracy Success Library): American Management Association, 2008-1-1.-138 P.
2. GOKARAJU RANGARAJU. Time management: Institute of Engineering and Technology/ India, 1997. 12 C.
3. Devin Allen. Getting things done: New-York 2001, 267 P.
4. Hatchatryan M.A. ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТ КАК УСПЕШНОЕ СРЕДСТВО ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ : ISSN 1991-5497. МИР НАУКИ, КУЛЬТУРЫ, ОБРАЗОВАНИЯ. № 5 (102) 2023.
5. Автореферат: РЕУНОВА Мария Александровна. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ «ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТ» КАК СРЕДСТВО САМООРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТА УНИВЕРСИТЕТА: Оренбург – 2013.
6. Автореферат: НИЗАМОВА ЧУЛПАН ИЛЬДАРОВНА. РАЗВИТИЕ САМООРГАНИЗАЦИИ СТУДЕНТОВ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С ПРИМЕНЕНИЕМ ТЕХНОЛОГИИ ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТ: Казань – 2021.
7. Стивен Р.Кови. Муваффақиятли инсонларнинг 7 кўникмаси (Шахсий камолотнинг қудратли қуроли): “Ofset-print” МЧЖ, “Nihol” нашриёти, 2020. 380 б.
8. Кел Ньюпорт. Дикқат ( Чалғитувчи дунёда муваффақият сирлари): “Ofset-print” МЧЖ, “Nihol” нашриёти, 2020. 230 б.
9. Автореферат: Ж. Мольер. Тайм-менеджмент: 2014г.
10. Захаренко Г.В. Тайм-менеджмент. – СПб.: Питер, 2004г. – 128 с.